

ISSN: 3030-3001

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА



Research Science and  
Innovation House

## НАША ИНДЕКСАЦИЯ



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Научный журнал «МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА»:

В данном сборнике опубликованы статьи, принятые на научную журнал  
Выпуск 2, Часть 3.

Всем статьям журнала присваивался уникальный номер DOI, который  
индексировался в международных научных базах данных **Zenodo, Open Aire,**

Диссертациями официально признаются статьи, опубликованные в  
национальных журналах из списка журналов, рекомендованных ВАК для  
публикации основных научных результатов диссертаций.

**Основание:** Страница 3 перечня научных изданий, рекомендованных  
для публикации основных научных результатов диссертаций ВАК Республики  
Узбекистан. – Ташкент: 2019. – 160 с.

Материалы журнал могут использовать профессора, преподаватели,  
независимые исследователи, докторанты, магистры, студенты, преподаватели  
лицеев и школ, научные работники и все, кто интересуется наукой.

Напоминание! Авторы несут персональную ответственность за  
правильность цифр, отчетов, данных и правильность цитат в научных статьях,  
включенных в сборник материалов конференции.



ООО «ДОМ ИССЛЕДОВАНИЙ  
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ»



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 2, Выпуск 3, 31 Март  
РЕДАКЦИЯ

**Главный редактор:** Эшкараев Садридин Чориевич – заведующий кафедрой медицины и естественных наук Термезского университета экономики и сервиса, доктор философских наук по химии, доцент, Термез, Узбекистан.

**Ответственный секретарь:** Бобоёров Сардор Учкун ўгли– студент Термезского филиала Ташкентской медицинской академии.

**Подготовлен:** Эшкораев Самариддин Садридин ўгли магистрант Термезского инженерно-технологического института.

## РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

**Редактор журнала «Технические науки»** Эшкараев Улугбек Чориевич – доцент кафедры «Методологии начального образования» Деновского института предпринимательства и педагогики, кандидат технических наук, Денов, Узбекистан.

**Редактор журнала «Технические науки»** Бабамуратов Бекзод Эргашевич – доцент кафедры физической химии Термезского государственного университета, доктор философских наук, Термез, Узбекистан.

**Редактор по химии** Миrabбос Ходжамбердиев Икромович - доцент, Технический университет Берлина, доктор химических наук, Берлин, Германия

**Редактор журнала «Химические науки»,** Эшкурбонов Фуркат Бозорович – Термизский инженерно-технологический институт, доктор химических наук, Термез, Узбекистан.

**Редактор отдела экономики** Отамуродов Шавкат Тиллаевич – проректор Термезского университета экономики и сервиса, доктор экономических наук, Термез, Узбекистан.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

**Редактор отдела социальных и гуманитарных наук** Худойбердиев

Хурсанд Худойбердиевич - Термезский инженерно-технологический институт, доктор социальных и гуманитарных наук, Термез, Узбекистан.

**Редактор журнала «Медицинские науки»** Отамуродов Фуркат Абдукаримович, директор Термезского филиала Ташкентской медицинской академии, г. Термез, доктор медицинских наук, г. Термез, Узбекистан.

**Редактор отдела биологических наук** Нурова Замира Аннакуловна, Ташкентская медицинская академия, Термезский филиал. Термез, Узбекистан, доктор биологических наук, доцент, Термез, Узбекистан.

**Редактор отдела медицинских наук** Турабаева Зарина Кенджабековна, Ташкентская медицинская академия, Термезский филиал, доктор медицинской философии, Термез, Узбекистан.

**Редактор журнала «Социология»** Эрйигитова Лобар Кадыровна, доктор философских и социологических наук, Термезский инженерно-технологический институт, Термиз, Узбекистан.

**Редактор филологического факультета** Джораева Рамзия Абдурахимовна Коканского государственного педагогического института. Кокан, доктор филологических наук Узбекистана, старший преподаватель.

**Редактор отдела физико-математических наук** Бобамуратов Улугбек Эркинович Термезский инженерно-технологический институт, доктор философских, физико-математических наук, Термез, Узбекистан.

**Редактор отдела медицинских наук** Ахмедов Камолиддин Хакимович, декан медицинского факультета Термезского филиала Ташкентской медицинской академии № 1, кандидат медицинских наук, доцент

**Редактор журнала «Медицинские науки»** Вохидов Алишер Шавкатович, заведующий кафедрой общей хирургии, детской хирургии и детской урологии Ташкентской медицинской академии, Термезский филиал, доктор медицинских наук, профессор

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**ISSN: 3030-3001**

**Том 2, Выпуск 3, 31 Март**

**Редактор** отдела гуманитарных наук Рахмонов Абдукаххор Абдусатторович, заместитель директора по духовно-нравственному воспитанию и работе с молодежью, доктор философских наук (PhD)

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## JAHON PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası professori

**Azimova Nasiba Ergashovna**,

Xorijiy tillar fakulteti 2 kurs talabasi

**Nasullayeva Zulayho**

**Annotatsiya.** Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari, pedagogik qarashlar va ta'limotlar haqida tarixan o'rganar ekanmiz, qadimgi Yunoniston va Rim pedagoglarining yuqorida keltirgan g'oyalarini tilga olish o'rinlidir. Chunki, O'rta Osiyoda yashagan mutafakkirlar Hindiston, Xitoy kabi sharq mamlakatlari madaniyati, ilm-fani, tarbiyashunosligi bilan bir qatorda qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati, falsafasi va pedagogikasiga ham e'tibor berganlar.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, talim, axloq, tarbiya, Xomosapiens, pandnoma, Koxinlar, fir'avnlr, «gramatist va kifaristlar», «polistra», Konfutsiylik.

Axloq va pedagogik qarashlar hamda ta'limotlar tarixiy jarayon bo'lib, kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan paydo bo'lib, shakllanib rivojlanib borgan. Tarbiya va axloqiy fikrlarning kelib chiqishi ibtidoiy jamiyat, uning yovvoyilik va vahshiylik davrlari tugab, tsivilizatsiya davri boshlanganida «Aqlli odam» (Xomosapiens) deb atalgan odamlar shakllangan davrda paydo bo'la boshlagan. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni g'ayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'lgan.

Tarbiya haqidagi pedagogik fikrlar, qarashlar va ta'limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Xoldey, Vavilon (Bobil), Misr, Xindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan. Shu boisdan eng qadimgi maktablar Sharq mamlakatlari, jumladan Xoldey, Vavilon, Misrda va Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar. Qadimgi Misr o'zining tarbiyaviy-axloqiy pandnomalari (quldorlar hayotiga doir xilma-xil maslahatlar, do'stlar bilan, xizmatkorlar bilan muomala qoidalari va hokazo) bilan mashhur bo'lgan va ularni koxinlar (kelajak haqida «karomat qiluvchi» kishilar, ruxoniylar) yaratganlar. Ular axloqning ibtidosi samoda deb qaraganlar hamda odamning buyuk maqsadini xudo bilan qo'shilib ketishda ko'rganlar, asosiy axloqiy majburiyatni fir'avnlr (Qadimgi Misr podsholarining

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

an'anaviy nomi) ga xizmat qilish va xudolarga hurmat bilan qarash deb bilganlar. Koxinlar kishilardagi «odobsizlik», «tarbiyasizlik» xudolarni lozim darajada e'zozlamaslikdan paydo bo'ladi deb bilganlar. Demak, Qadimgi Misrda diniy va dunyoviy ma'nodagi axloqiy-tarbiyaviy ta'limotlar paydo bo'lgan.

Eramizdan avvalgi II asrda qog'oz ilk bor Xitoyda kashf etildi va ishlab chiqilgan. Keyinchalik VII asrda Samarqanda qog'oz ishlab chiqarila boshlandi va Yevropa mamlakatlariga sotilgan. XVII asrda qog'oz ishlab chiqish Yevropa mamlakatlariga ham yoyilgan. 1000 yildan buyon bo'lib kelayotgan qog'oz bosish Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin to'xtatilgan.

Sharq mamlakatlaridagi ilk tarbiya maktablarida xat-savod o'rgatish murakkab, og'ir ish hisoblangan. Ilm olish – nina bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Shu boisdan mutafakkir olimlar o'qitishning yengilroq usullarini topish ustida bosh qotirganlar. Bu davrlarda yozuv, o'qish, hisob va din ilmlari yaratildi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom o'rnatilgan, bolalarga nisbatan jismoniy jazo qo'llangan. Markaziy Osiyoda falsafiy, axloqiy, ma'rifiy tafakkurning ilk kurtaklari xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan. Ularda yozuv paydo bo'lgunga qadar va undan keyin ham xalq ruhi va ma'naviy faolligi aks etgan. Sharqda, jumladan O'zbekiston hududida ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor berilib, bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr oqibatli qilib voyaga yetkazish, el-yurtga nafi tegadigan farzand qilib o'stirish masalalariga otabobolarimiz jiddiy e'tibor qilishgan.

Sharq pedagoglari bolalarni o'qishga qiziqtirish uchun kitobdagi voqealarni qush va hayvonlar tilidan hikoya qilar edilar. Masalan, «Qobusnoma», «Axloqi Muhsiniy», «Kalila va Dimna» kabi asarlar shular jumlasidandir. VII- VIII asrlarda Markaziy Osiyoni arablar bosib olgach, islom dini asosidagi sifat jihatidan yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab tilini o'rganish joriy etildi. Bu davrda Markaziy Osiyoda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish uchun maktablar, machit va madrasalar tashkil qilindi. Bu usulda o'qitish 1917 yil Oktyabr to'ntarilishidan keyin eski unsur sifatida qoralandi va yangi (jadid) usulidagi o'qitish tizimi (maktablar) yuzaga keldi. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar va ta'limotlar.

Eramizdan oldingi VI asrdan milodiy V asrgacha bo'lgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, Respublika boshqaruvi o'rnatildi. Bu davrda o'ziga xos ta'lim-tarbiya

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

tizimlari va mutafakkirlar tomonidan o'ziga xos pedagogik ta'limotlar yaratildi. Afinadagi quldorlar o'z bolalariga aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyalarni berganlar. Afinada bolalar 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar «gramatist va kifaristlar» maktablarida ta'lim olganlar So'ngra 14-15 yoshli bolalar «polistra» (kurash) maktablarida taxsil olgan. 16-17 yoshli bolalar «Gimnaziya» da, 18-20 yoshli bolalar esa Efiliya maktablarida ta'lim-tarbiya olganlar.

Yunonistonlik olimlar Demokrit, suqrot, Aflotun, Arastu, shuningdek mashhur Rim pedagogi Kvintilianlar o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaga doir pedagogik nazariyalar yaratdilar. Masalan, Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rtaga qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini o'qtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o'qitishda majburlash usulidan ko'ra, ishontirish usulidan foydalanish afzalligini ta'kidlagan edi. U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko'rsatib, pedagoglar, ota-onalar bolada yaxshi xulq hosil qilish uchun ularga foydali xatti-harakatlarni ko'proq mashq qildirishlari lozim, degan edi. Qadimgi mashhur grek olimi Suqrot (er. av. 469-309 yy) axloq-tarbiya soxasida maktab yaratib, u guyo xudo yaratgan umumiy fazilatlarni targ'ib etdi. Suqrot odamni fazilatga o'rgatishdan oldin, eng avvalo umumiy etika-tarbiya qonuniyatlarini, mezonlarini bilish zarur deydi. Uning fikricha, tarbiyadan ko'zlangan maqsad, narsalar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olish qobiliyatini, axloqini kamol toptirish bo'lmog'i lozim. Aflotun bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish, uning yaxshi xulqi, itoatkorligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa – qo'rqitish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi-tarbiyachi yoshlarga bilim berish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Arastuning «Iskandarga nasihat» asarida bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazardan hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham odobi xususida diqqatga sazovordir. Negaki, saylab qo'yish taomili o'qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga katta majburiyatlar yuklagan. Bu taomil Afina davlatida pedagoglik ishining ommaviylikini, unga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi. Rim pedagoglaridan eng mashhuri – Mark Fabiy Kvintilian «Notiqni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida pedagogik fikrlarni, o'qitish soxasiga doir qarashlarni



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

bayon etadi. Uning fikricha, bola maktabda ta'lim-tarbiya olishi lozim. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi kerak. O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga maqtayvermasligi yoki jazolavermasligi darkor.

Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya. Konfutsiylik. Xitoy qadimdan sharqdagi yirik davlatlardan biri bo'lgan. Qadimgi Xitoyda pedagogik fikrlar, ta'limotlarning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 2 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi va ular asosan konfutsiylik, daosizm, Yan Chju ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda Xitoyda ilk tarbiya maktablari paydo bo'lib, ularda bolalar ieroglif (belgilar orqali) o'qitilgan. Xitoyda keng tarqalgan Konfutsiylik ta'limotining ahamiyati katta bo'ldi. Konfutsiy ta'limotiga muvofiq, odamlar o'z tabiatlariga ko'ra hammasi bir, faqat tarbiya tufayli ular bir-birlaridan farq qiladilar. Chunonchi, Konfutsiyning e'tirof etishicha, «Odamlar o'z tabiatiga ko'ra bir-birlariga yaqindirlar. Lekin o'zlarining xulq-atvorlari, odatlariga ko'ra bir-birlaridan yiroqdirlar». Konfutsiy – Xitoyning taniqli mutafakkiri. U eramizdan avvalgi 551 yilda kambag'al oilada tug'ildi. Konfutsiy umri davomida, asosan, o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Xitoyda Konfutsiy tuzgan maktab ko'p asrlar davom etdi. Miloddan avvalgi 136 yilda imperator U-Di hukmronlik qilgan davrda Konfutsiy qarashlari rasmiy ravishda ta'limot – tizim deb e'lon qilindi. Shundan keyin Konfutsiy ta'limoti ikki ming yildan ortiq vaqt maboynida hukmron g'oya sifatida davom etdi. Konfutsiyning inson to'g'risidagi fikr-mulohazalarini, shogirdlari bilan suhbatlarini aks ettiruvchi «Suhbatlar va mulohazalar» asarida ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda sodir bo'layotgan turli axloqsizliklardan Konfutsiy qattiq tashvishga tushadi, fuqarolarni tarbiyalashga harakat qilib, ularni insof-diyonatga, bir-birlarini hurmat qilishga, atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga chorlaydi. Uning tushuntirishicha, insoniylikning turli fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan chinakam inson faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun, boshqalar uchun ham yashamog'i darkor. Insonning insoniyligi, eng avvalo, quyidagi talablarga javob bermog'i darkor. O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatli bo'lish, qadr-qimmatli bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiy, halol, haqiqatgo'y, mard, jasur, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarini singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash otanonaning burchi hisoblangan O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

hikoyatlarda ma'naviy-axloqiy ideallar, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. «Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan», «Har kim ekkanini o'radi», «Bola aziz, odobi undan aziz» kabi maqollar shular jumlasidandir. Bu kabi o'git va naqllarda xalqimizning tarbiya borasidagi boy merosi namunalari o'z ifodasini topgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азимова Н. Э., Насимова З. И. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида бўлажак касб таълими ўқитувчисини тарбиялаш методикаси //psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 3. – С. 129-134.

2. Azimova N. E. Problems of development of new pedagogical technologies of training of teachers of professional education and their introduction into the educational and educational process //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-3.

3. Azimova N. E. Formation of National and Ideological Education of Students is an Integral Part of the Learning Process. – 2021.

4. Azimova N. E. A financially independent higher education institution is the foundation of our future //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-134.

5. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## TURISTLARNI O'ZBEKISTONGA JALB QILISH MUAMMOLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm ( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ) yo'nalishi talabalari

**Shodiyev Sayidaxmad Abdumalikovich**

[sayidaxmadshodiyev30@gmail.com](mailto:sayidaxmadshodiyev30@gmail.com)

**Shoimova Go'zal Qahramon qizi**

[s21752065@gmail.com](mailto:s21752065@gmail.com)

**Xolnazarov Samandar Astanaqul o'g'li**

[xolnazarovsamandar7@gmail.com](mailto:xolnazarovsamandar7@gmail.com)

**Xoliqova Nargiza Xoltura qizi**

[nargizaxoliqova38@gmail.com](mailto:nargizaxoliqova38@gmail.com)

**Xudoyqulov Abdulvohid Panji o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlaktimizda turizmni rivojlantirish doirasidagi fikrlar ilgari surilgan. Shu bilan birgalikda qator muammolar keltirib o'tilgan. Muammoli holatlar ,kamchiliklar sanab o'tilgan. Albatta yechim va takliflar ham kiritilgan. Madaniy obektlarimizga e'tibor kamligi kabi kamchiliklarimiz keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm industiriyasi, shonli tarix, madaniy yodgorliklar, xizmat ko'rsatish, malakali kadr, firibgarlik, yo'l qiyinchiliklari, reklama.

Barchamizga ma'lumki, turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli-tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi.

Shuni alohida takidlash kerakki mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirish uchun ulkan turistik resurs mavjud. Bu kabi imkoniyat dunyoni sanoqli davlatlarida bor. Go'zal tabiat, xilma-xil iqlim, shonli tarix, madaniy yodgorliklar, hududlarning bir-birini takrorlamaydigan o'ziga xos ananalari bularning hammasi yurtimizda mujassam.

Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan xizmat ko'rsatish industriya sohasi bo'lib, unda ko'rsatiladigan xizmatlar ham olish resurslari mavjud bulgan xududlarga sayyohlar tomonidan borib iste'mol qilinadi. Turizm mehnatni ko'p talab qiladigan tarmoq sifatida nafaqat turizmدا, balki

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

sayohatchilar iste'mol qiladigan xilma-xil mahsulot va tovarlarni ishlab chiqaradigan sanoat, qishloq xujaligi hamda ularga xizmat ko'rsatadigan transport va infratuzilma tarmoqlarida ham ko'plab ish o'rinlarini yaratishga, shuningdek, mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini kupaytirishga, shu asoslarda iqtisodiy faoliyatni sezilarli kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizga turistlar kelishi oqimini pasaytiradigan omillar afsuski talaygina. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- qo'shni davlatda bo'layotgan siyosiy xolat
- xizmat ko'rsatish sohasining sustligi yoki sifatsizligi
- yo'l infratuzilmasidagi qiyinchiliklar
- ijtimoiy aloqaning sustligi ba'zi joylarda mavjud emasligi
- turistlar foydalanishi uchun yagona saytning yo'qligi
- firibgarlik holatlarining kuzatilishi
- malakali kadrlarning yetishmasligi
- turistlarni jalb qila oladigan reklama resurslarining kamligi
- qishloq hududlariga yetarli elektr energiyasining yetib kelmasligi
- qishloq dam olish maskanlarida sivilizatsiyaning yo'qligi

Shu kabi kamchiliklar bilan birgalikda bir qator yutuqlarimiz ham mavjud O'zbekiston hududida 7300 ga yaqin tarixiy madaniy obyektlar aniqlangan, bir nechta qoriqxonalar va milliy bog'lar mavjud, 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalari bor.

Mamlakatimizda mavjud turistik resurslar orasida madaniyat maskanlarini o'rni alohida ahamiyatga ega. Biz bulardan keng foydalanib turizm sohasini imkon qadar rivojlantirmog'imiz kerak. Xo'sh, buni qanday amalga oshiramiz? Turizm sohasida asosiy muammolar nimada? Avvalo shularni aniqlash kerak. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mavjud resurslar yetarlicha. Afsuski, ko'pchiliklari e'riborga muxtoj. Ularni tamirlash va obodonlashtirish orqali biz nafaqat ichki turizm balki tashqi turizm salohiyatini oshiramiz. Iqtisodga ham bevosita ta'sir ko'rsatamiz. Ziyoratgohlar yonida yemakxona, savdo do'konchalari, hamomlar tashkillashishi oqibatida qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi va aholi daromadi oshishiga shuningdek kambag'allikni qisqartirishga olib keladi. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Qo‘qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo‘la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o‘tgan yildagidan biroz ko‘paygan bo‘lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o‘tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo‘la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

Maqola so‘ngida shuni keltirib o‘tamizki yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Bunday ijobiy o‘zgarishlar, rivojlanishni yangi bosqichga ko‘tarish uchun, hammamiz o‘z vazifamizni chin yurakdan ado etishimiz, fidoyi bo‘lishimiz lozim. Turizmni rivojlantirish har tomonlama davlatga va aholiga foyda. Milliy qadriyatlarimizni jahonga tanitish, ular bizning milliyligimizni etirof etishlari albatta bizni quvontiradi. Biz yoshlar mana shuning uchun harakatdamiz

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.

2.M.Amonboev, N.Juraeva —Turizm iqtisodiyoti bva menejmentini o‘quv uslubiy majmua. – T;TDIU 2018

3. Christopher Dougherty. Introduction to econometrics. 2011. 336 p.

4.uzbekturizm.uz ma‘lumotlari.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## TURIZMNING MILLIY IQTISODGA TA'SIRI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm ( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) yo'nalishi talabalari

**Boboxonov Umidjon Baxtiyor o'g'li**

**Choriyev Jasur Baxodir o'g'li**

**Ziyodullayev Asliddin Mamayusupovich**

**Mamayusupov Elyor Jahongirovich**

**Komilov Mavlonbek Kozimjon o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mazmuni shundaki, turizm sohasi rivojlanishi yuzasidan iqtisodga nechog'lik foyda keltirilishi, ijobiy va salbiy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek ehtimoliy pragnoz ham keltirilgan. Turizmning nafaqat iqtisodga bog'liqligi balki barcha iltimoiy fanlarga aloqadorligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisod, soliq, turistik bozor, ijtimoiy fan, Buyuk Ipak yo'li, malakali kadir, resurs.

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarida turizm industriyasi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi. Turizm rivoji uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilmadi, hamma o'z bilganicha faoliyat yuritib keldi. O'zbekistonda turizm yosh tarmoq hisoblanadi va davlat tomonidan turli yordam choralariga muhtoj edi. Ammo yaqin yillar ichida bu sohaga e'tibor yanada ko'paydi. Bu holat albatta yaxshi. Turizm sohasining milliy iqtisodga keltiradigan foydasi talaygina. Ushbu soha nafaqat iqtisodga balki davlatning barcha ijtimoiy sohasiga ijobiy natija keltiradi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki ba'zi hollarda salbiy oqibatlar ham mavjud. Biz bularni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin

- Turistlar tomonidan atrof muhitga keltiriladigan zarar (tabiatga, suvga, tozalikka va hakazolar)
- Turistlar bilan birgalikda ommaviy madaniyatning kirib kelishi

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

- Umumjamo'a muhitining buzilishi (ichkilik, ko'ngil xushlikning chegaradan chiqib ketishi)

- Bazi hollarda turistlarning jamoa qoidasini buzishlari kabilar

Mamlakat iqtisodiyoti va turizm bir biri bilan o'zaro bog'liq harakatdadir

. Turizm rivojlanayotgan hudud iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm katta hajmdagi chet el valyutasi oqimini ta'minlaydi, hamda shu jihatdan milliy iqtisodimizga o'zining foydasini keltiradi.

Turizm aholi hayot darajasining oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm xizmatlariga qolgan tarmoqlarga qaraganda yuqori haq to'lanadi. Turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun asosiy omil bu kadrlarning bilimi va tajriba potensialidir. Hozirda respublikamizda turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lsa ham juda kam yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar faqat —Buyuk Ipak yo'lida joylashgan shaharlarga qaratilgan. Lekin respublikamizda turistlarning ko'rishi va dam olishlari uchun tarixiy va xushmanzara joylar ko'p. Faqat ularni yuqori darajada tanishtirish, yangi yo'nalishlar tizimi va turistlarni o'sha joylarga joylashtirish yo'llari ishlab chiqilishi kerak. Turizmning mahalliy aholiga ham ta'siri ayrichadir, misol uchun o'lkadagi muqobil aholi ayni davrda ish bilan ta'minlanadi, turli millat elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana qadriyatlari bilan tanish bo'ladilar, doimiy daromat olib turish imoniga ega bo'lidilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining milliyliklarini namoyish qilish maqsadida ularni saqlab qolish unutilganlarini yodga olishga erishadilar, turli xalqlardagi mehmon kutish an'analari o'rganadilar o'z milliy mehmondorchiliklarini namoyish qiladilar. Bu kabi imkoniyatlar orqasidan mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi o'sib rivojlanib boraveradi. Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, yuqori valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Yaqin insonlariga hadya sotib olishadi, milliy hunarmandchilik mahsulotlarimiz bozori kengayadi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli tomoshalarga kiradilar va ularda qatnashadilar. Ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Turizm sohasi iqtisodiyotimizga ko'p tomonlama foyda keltiradi. bularga misol tariqasida quyidagilarni keltiramiz:

- Qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi oqibatida aholi bandligi ta'minlanadi.
- Tarixiy -madaniy obektlarimizga e'tibor ortadi
- Qishloq joylardagi mahalliy aholi tomonidan yasalgan hunarmadchilik buyumlari haridori ortadi
- Turistik hududlarga e'tibor o'rtishi natijasida hududda urbanizatsiya darajasi oshadi
- Davlatning soliq tushumi ortadi
- Milliy hunarmandchilik mahsulotlarimiz dunyo brendi darajasiga ko'tarilib ketishi ehtimoli mavjud bo'ladi

Maqola so'ngida shuni xulosa qilamizki ko'p tarmoqli bo'gan turizm sohasi iqtisodning noishlab chiqarish tarmog'idir.

Dunyo aholisi qiziqish uyg'atayotgan yangi soha turizm o'zini oqlamoqda. U xoh ta'limda bo'lsin, xoh tibbiyotda har sohada rivojlaib iqtisodga foyda keltirmoqda. Biz ham bu holatga to'g'ri baho bergan holda turizmni jadal rivojlantirmog'imiz darkor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turizm: nazariya va amaliyot : darslik / Boltabayev M. R., Tuxliyev I. S., Safarov B. Sh., Abduxamidov S. A.. - Toshkent : Barkamol fayz media, 2018. - 400 b
2. Иқтисодиёт ва менежмент асослари : ўқув қўлланма / Икромов М., Солиев А. С.. - Тошкент : Vneshinvestprom, 2019. – 28
3. М.Амонбойев, N.Juraeva —Turizm iqtisodiyoti va menegmentil O\_\_quv uslubiy majmua 2018 yil 0 б;
4. www.uzbekturizm.uz sayti ma'lumotlari.



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## MARKETINGNING TURIZMDAGI AHAMIYATI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm ( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) yo'nalishi talabalari

**Qarshiyev Asilbek Yoqub o'g'li**

**Boyqobilov Abdulla Nurmuxammad o'g'li**

**Berdiqobilov Asilbek Tog'aynazar o'g'li**

**Xolliyev Sardor Saidali o'g'li**

**Rustamov Sharofiddin Jurabek o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada marketingning turizmdagi ahamiyati yoritilgan.

Marketingning o'ziga xos jihatlari. Turizm sanoatining yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishini hisobga olgan holda, yaxshi marketing muvaffaqiyatning asosi ekanligini qayd qilish. Turizm maskanlari turistlarni marketing xizmatiz o'ziga jalb qila olmasligi yoritigan.

**Kalit so'zlar:** Marketing, internet, axborot, investetsiya, istemolchi bozori, reklama

Turizm sohasiga hozirgi kunda dunyo aholisining ko'plab qatlami qiziqish bildirmoqda. Shuningdek, iqtisodning noishlab chiqarish tarmog'i sifatida jadal rivojlanmoda.

Albatta har bir inson yangi joylarni o'zi uchun kashf qilishni xohlaydi. Dunyo kezib yangi madaniyat, o'zgacha iqlimdan rohat olish maqsadida sayohat qilishadi. Insoniyat qiziquvchan bo'lganligi sababli doim o'zi uchun kreativ sayohatlarni kashf qilishni xohlashadi.

Internet va boshqa texnologiyalar rivojlanishi turizmga katta turtki bo'lishi bilan birga bu tizimdan foydalaniladigan turistlar har doim ham topilavermaydi. Shuning uchun ham televideniya va radio orqali turmahsulotlar reklamasi o'z qulayligini ko'rsatadi. Marketing sohasi turizmni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Axborot vositalarida reklama sifatli va aniq uzatilsa sayyohlar soni ortadi. Biz turizmni rivojlantirishga katta e'tibor berar ekanmiz ijtimoiy tarmoq, marketing kabi yo'nalishlarga e'tiborimizni yo'naltirmog'imiz darkor. Afsuski, bu sohalarda

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

yutug'imiz maqtovg'a arzigulik emas. Mamlakatimizda turizm marketing sohasini rivojlantirish uchun bizga kerak bo'luvchi omillar:

- ko'pgina malakali mutaxassislar kerak.
- Davlat tomonidan turizmni qo'llab quvvatlash uchun turizmga oid turli

xil video roliklar tanlovlarini e'lon qilish, blogerlarga mamlakatimizning so'lim go'shalariga borib video olishni topshiriq berish, mamlakatimizning turizm salohiyatini ochib beruvchi qisqa metrajli kinolarni suratga olishni topshiriq sifatida berish va uni xalqaro tanlovlarda ishtirok etishini taminlash kabilar orqali biz qaysidur ma'noda turizm marketing sohasini rivojlantira olamiz.

Turizm marketingning o'ziga xos jihati shundaki, xizmatlarga talab doimiy o'sib boradi, ammo iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga ma'lum darajada bog'liq.

Turistik kompaniya axborot makonida ishlaydi, shuning uchun unga yaxlit tizim asosida qanday ma'lumot kerakligini va uni qayerdan olish mumkinligini aniqlash kerak.

Ma'lum bir davrda ekspertlar, shahar madaniyati mahsuloti bo'lgan va jiddiy ijtimoiy-tartibga soluvchi salohiyatga ega bo'lgan reklama, jamiyatdagi turli jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi, ijtimoiy-pedagogik va sotsial-madaniy vazifalarni bajaradigan muhim mexanizmlardan biriga aylanganini payqashdi. Asta-sekin, reklama jamiyatning qadriyatlari va standartlarini, individual va guruhning normalari va qoidalarini, hayot va iste'molning ideal modeli haqidagi jamoatchilik g'oyalarini shakllantira boshladi, shuning uchun uning ta'sirini, mavzusi va mohiyatini tahlil qilish muhim bo'la boshlaganini anglagan holda marketingni rivojlantirmog'imiz darkor. Reklama roli faqat belgilangan joyga tashriflarni rag'batlantirish bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu manzilni potentsial sayohatchilarga ochib berishni, boradigan joyning ijobiy imidjini yaratishni va oxir-oqibat haqiqiy tashrifga olib keladigan manzilni tanlashni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Turizm sanoati professional daromad olish uchun reklamani asosiy vositasi sifatida ishlatishi kerak. Har bir mamlakatda turizmni muvaffaqiyatli targ'ib qilish madaniy qadriyatlarga, reklama va uning qadriyatlarini tushunishga asoslangan. Professional reklamani mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham iqtisodiy rivojlanishning muvaffaqiyatli vositasi sifatida ko'rish mumkin. Noto'g'ri, etarli bo'lmagan reklama mablag' va energiyani behuda sarflashi mumkin. Reklama beruvchidan maqsadli auditoriyani aniqlash kerak, bu esa sayyohlarni jalb qilish

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

uchun mo'ljallangan reklama hajmiga qarab turizm, investitsiyalar va boshqa ijobiy xulq -atvorni oshiradi.

Shunday qilib reklama - bu sayyohlik joylari to'g'risida kerakli ma'lumotlarni berish, ularni sayohatga ishontirish uchun ishlatiladi. Aslida, reklama iste'molchilar bozoridan darhol javob olish maqsadida yozma ommaviy axborot vositalaridan (video va audio) foydalanib, sayohat va turizm sohasidagi turli iste'molchilarga xabar yuborishni o'z ichiga oladi. Reklama har qanday ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tomonidan har qanday mahsulot yoki xizmat yoki g'oyani bo'lajak xaridorga taqdim etish bilan bog'liq barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi. Reklama ma'lum xarajatlarni talab qiladi va ularni sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi yoki reklama beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki homiy sifatida xarajatlarni qoplaydi. mahsulot yoki xizmat yoki g'oya haqidagi o'ziga xos xabar reklama deb ataladi. har bir reklamada homiyning kimligi oshkor qilinadi. Reklamaning asosiy maqsadi - xaridorlarga mahsulot yoki xizmatning foydaliligi to'g'risida ma'lumot berish va shu orqali ularni sotib olishga undash. Reklama, shuningdek, har qanday yangi mahsulotga bo'lgan talabni yaratish,

Turizm sanoatining yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishini hisobga olgan holda, yaxshi marketing muvaffaqiyatning asosi ekanligini qayd qilish kerak. Turizm maskanlari turistlarni marketing xizmatidagi o'ziga jalb qila olmaydi.

## FOYDAKANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» gi 2018 yil 6 fevraldagi ПҚ-3509-sonli Qarori.

3. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. —Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистанал. -Т.:Узбекистан Миллий Энциклопедияси, 2016 й, 367 ст.

4. www.stat.uz – O\_zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo\_\_mitasi sayti.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## O'ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ) yo'nalishi talabalari

**Xushmanova Madina Yusufali qizi**

[xushmanovamadina49@gmail.com](mailto:xushmanovamadina49@gmail.com)

**Qayumova Shohista Nodirovna**

[khayumovashohista@gmail.com](mailto:khayumovashohista@gmail.com)

**Baratova Durdona Fayzullo qizi**

[baratovadurdona799@gmail.com](mailto:baratovadurdona799@gmail.com)

**Mamadiyorova Jumagul Tog'aymurod qizi**

[madiyorovajumagul3@gmail.com](mailto:madiyorovajumagul3@gmail.com)

**Ashurova Xurriyat Abdug'offor qizi**

[ashurovahurriyat358@gmail.com](mailto:ashurovahurriyat358@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq turizmiga e'tibor berish orqali mahalliy aholi erishishi mumkin bo'lgan iqtisodiy foyda hamda atrof-muhitga zarar bermasdan turizmni rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Shu bilan birgalikda qishloq turizmni rivojlantiribgina qolmasdan milliy qadriyat va udumlarimiz, hunarmadchilik buyumlarimiz, atlas kabi milliy matolarimizni dunyoga tanitish haqidagi fikrlar mavjud.

**Kalit so'zlar:** Ekzotik makon, toza hudud, qishloq turizmi, kashta, atlas, o'rta daromat, , me'moriy yodgorliklar, sharshara, agroturizm, infratuzilma, Yangi O'zbekiston. Ma'lumki, qishloq joylar katta-katta maydonlarni, muayyan tabiiy shart sharoit, go'zal manzara, ekzotik makon, tabiiy sharsharalar, tabiat mo'jizasining g'oyatda g'o'zal ko'rinishini o'zida jamlaganligi, toza havoning borligi, insonlarining mehmondo'stligi, kayfiyatni ko'taruvchi manzaralarning ko'pligi va boshqa salohiyati, aholi, uning joylashuv tizimini o'zida mujassamlashtirgan hududlar yig'indisidan iboratligi jihatidan turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Bugungi kunda qishloq turizmi turizmning yangi va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanib, mamlakat ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq joylarida turizmni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

sifatida qishloq hududlarini barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, qishloq joylarida infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirishda, qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda, mahalliy aholi daromadini o'stirishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, madaniy urf-odatlar va milliy an'analarni qayta tiklashda, shuningdek, atrof-muhitni himoya qilishda qishloq turizmi muhim rol o'ynaydi

Qishloq turizm (agroturizm) bu kishilarning doimiy yashash joyidan qishloq uylariga, qo'rg'onlariga va fermer xo'jaliklariga turistik sayohatni amalqoshirishi hisoblanadi. Qishloq turizmi qishloq joylarida dam olish va mazmunli hordiq chiqarish hisoblanib, bugungi kunda insonlarning asosiy zaruriy ehtiyojiga aylanib bormoqda. Shaharning shovqin suroni, kuchli toliqib ishlash jarayoni, havoning ifloslanishi, shahar aholisini tinch, osoyishta va sof havosi bo'lgan tabiat qo'yniga chiqishga undaydi. Bunday dam olish insonning tabiatga yaqin bo'lishi, yaxshi dam olishi, yangidan kuch-quvvat to'plash sharoitini berishi bilan birgalikda, mazkur joyni tarixi, madaniyati, etnografiyasi, urf-odatlari, me'moriy yodgorliklari va hunarmandchiligi bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Shuningdek, mahalliy aholining o'ziga xos kiyinish madaniyati, milliy taomlari, folklori, tili yoki shevasi bilan yaqindan tanishish hamda qishloq joylarini suratga olish, mevalar terish va boshqa qiziqarli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratadi.

So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab qishloq turizmiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Qishloq turizmini rivojlantirish orqali biz butun dunyoga o'z milliylikimizni, urf-odatlarimizni, milliy adras, atlas, badras, manoras kabi matolarimizni tanitgan bo'lamiz. Kashta, so'zana, o'tov, jamalak kabi milliylikimizni o'zida aks ettiruvchi hunarmandchilik buyumlarimizni ko'rish imkoniyati taqdim etamiz. Turistlar oqimi ko'paysa mahalliy aholi ham doimiy va mavsumiy ish bilan ta'minlanadi, aholi daromadi ko'payadi. Bular ham iqtisodning rivojlanishiga bir turtki bo'ladi. Qishloq turizmini rivojlanishida yana bir muhim bo'lgan omillardan bir agroturistik mahsulotlar, o'rta daromadga ega iste'molchilar talabini qondirayotganligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizning qishloq joylarida oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni samarali rivojlantirishda agroturizm muhim o'rin egallaydi. Hozirda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining ulushi tobora ortib, kengayib bormoqda. Ular tomonidan yirik tabiiy hududlar, jumladan: o'rmon hududlari, baliqchilik, chorvachilik xo'jaliklari, meva va uzumchilik bog'lari, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtiradigan hududlar tashkil etilib, ushbu

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

hududlarda fermerlar tomonidan dala shiyponlari, xizmat ko'rsatish komplekslari barpo etilmoqda. Bu esa qishloq joylarda agroturizm sohasini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Umuman mamlakatimizning yagona turistik makoni bir-biri bilan uzviy bog'liq, ayni paytda o'zaro katta farq qiladigan o'ziga xos cho'l (saxro), sug'oriladigan tekislik zonasining vodiylar va vohalari, tog' landshaftlari majmualaridan tarkib topgan bo'lib, ular turli yo'nalishdagi turizm o'choqlari va markazlarini barpo etishga mustahkam tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda xalqaro sayyohlikda innovatsion yo'nalish sifatida jadal rivojlanayotgan ekologik turizm uchun mamlakatimizda g'oyat qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar mavjudligini alohida ta'kidlash lozim.

Turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tadbirlarga qaramasdan, mamlakatimizda agroturizm faoliyatini samarali tashkil qilishda ba'zi muammolar mavjud ekanligini qayd qilib o'tish lozim:

– mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda “agroturizm”, “qishloq turizmi”, “yashil

turizm”, “eko-agroturizm”, “fermerlik turizmi” tushunchalarining mohiyati to'liq

ochib berilmagan; – qishloq turizmini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik mexanizmi shakllanmagan;

– qishloq joylarida agroturizm faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari to'g'risidagi axborotlar bilan qishloq aholisi yetarli darajada ta'minlanmagan;

– qishloq joylarida agroturizmni samarali tashkil qilish uchun malakali kadrlar yetishmaydi. Mamlakatimizda qishloq turizmining rivojlanishi iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi va ijobiy samara beradi. Xususan, davlatimiz uchun:

-milliy urf-odatlar va an'analarni o'rganishga qiziqish ortadi;

-qishloq aholining o'ziga xos hayot tarzi va an'anaviy qadriyatlar keng targ'ib qilinadi;

hududlarning madaniy va tarixiy merosi asrab-avaylanadi;

qishloq joylarida ishlab chiqarish sohasi yanada rivoj topadi.

*Qishloq aholisi uchun:*

yoshlar uchun “kichik Vatan”ning tarixiy-madaniy ahamiyatini anglatadi, uning mamlakat hamda jahonda mashhurligidan faxr hissini oshiradi; yangi ish

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

o‘rinlari yaratilib, mahalliy aholining bandlik muammosi hal qilinadi; qishloq joylarida uy-joy fondi tuzilmasi yanada rivoj topadi;

*Turistlar uchun:* mahalliy aholining o‘ziga xos tarixi, an‘analari, urf-odatlarini, gastronomiyasi, madaniy-ma‘naviy jihatdan rivojlanishi bilan yaqindan tanishish imkoniyati yuzaga keladi; go‘zal tabiat qo‘ynida dam olib, sog‘liqni qayta tiklash imkoniyati paydo bo‘ladi.

**XULOSA:** Maqola so‘ngida xulosa qilib shuni aytib o‘tamizki, qishloq turizmi rivojlanishi nafaqat Yangi O‘zbekistonga foyda balki doimiy ish bilan ta‘minlanmagan qishloq aholining ham bandligi ta‘minlash orqali yashil iqtisodga foyda keltiradi. Shuningdek mamlakatimizda qishloq turizmini barqaror rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanilsa, mamlakatimiz qishloqlari yanada obod bo‘ladi, aksariyat yoshlar yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlanadi, qishloq xalqining turmush faravonligi yanada oshadi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2017- 2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni - Toshkent, 2017 179
2. Абдужабборов. М.А. Карст гор Южного Узбекистана. - Т.: 1990.
3. Абдусаломов Ғ. Туризм соҳасида ютуқлар кўп, камчиликлар ҳам йўқ эмас//Зарафшон газетаси, 24 декабр, 159 (22.797)-сон.
4. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник- М.:Аспект Пресс, 2002-470 с.
5. Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми.-Самарқанд, 2012 952529707

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## TURIZM INDUSTRIYASIDA TEXNOLOGIK YANGILIKLARNI BOSHQARISH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm ( faoliyat yo'nalishlari  
bo'yicha) yo'nalishi talabalari

**Atamurodova Gulsevar Davron qizi**  
**Saidqulova Mohistara Zayniddin qizi**  
**Ochildiyev Erali Narmamat o'g'li**

**Annotatsiya:** turizm industriyasida texnologik yangiliklarning alohida o'rnini yoritilgan. Ijtimoiy aloqaning nechog'lik muhimligi turizmdagi o'rnini kabi tushinchalar, marketing, aloqa operatorligidagi yaratilgan qulayliklar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm insuatriyasi, ijtimoiy aloqa, firma, marketing, texnologiya, aloqa operatorligi, global axboirot.

Turizm iqtisodiyotiga komputar texnologiyalari katta foyda keltira boshlagan tarmoqlaridan biriga aylanib qoldi. Bularga aviachiptalar, boshqa turdagi transport vositalari uchun chiptalar, sayohatlar va mehmonxolarda xonalar uchun avvaldan buyurma berib qo'yish tizimlari kiradi. Bugungi kunda Amadens, Gabriel, Sabre, World Spar, Apollo va boshqalar kabi eng yirik tizimlarning O'zbekistonda o'z vakolatxonalarini ochilgan. Bundan tashqari Internet - jahon axborot tarmog'ining ahamiyati bu sohada kun sayin ortib bormoqda. internet- texnologiyalar turistik firmalarga xalqaro telefon suhbatlari va faks yo'llash uchun xarajatlarni qisqartirish evaziga katta miqdordagi mablag'larni tejashda yaqindan yordam beradi.

Yil sayin aviachiptalar va mehmonxonalariga avvaldan buyurtma berish tizimidan foydalanayotgan turistik firmalarining soni ortib bormoqda. Bunday tizimlar jahonning barcha mehmonxonalarida xonaga buyurtma berish qisqa vaqt davomida ish joyini tark etmagan holda buyurtma berish shartlari, narxlar, imtiyozlar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Avvallari bu ishlarni amalga oshirish uchun uzoq vaqt va mablag' kerak bo'lardi. Tizimga kiruvchi agentliklar hozirgi kunda o'tgan yilgi ma'lumotnomalardan emas, balki eng oxirgi ma'lumotlardan foydalanishadi. Alean tizimininng qatnashchilari qimmatbaho dasturiy ta'minotni sotib olishlariga hojat yo'q, chunki bu tizim Internet tarmog'ining standart texnologiyalariga asoslangan.



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Yangi texnologik urush tufayli turistik xizmatlar bozorini tizimlashtirish jarayoni jadal ravishda kechmoqda. Axborot tizimlariga murojaat qilish qiymati pasaydi. Bu hodisa 2-3 kishidan iborat turistik agentligiga avvallari foydalanish qimmatga tushgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu shuni anglatadiki, unchalik katta bo'lmagan turagentliklar katta tashkilotlarga jiddiy raqobatni yuzaga keltirishi mumkin. Internet rivojlanishi bilan birga nafaqat turistik biznesda qatnashuvchilarning joyi va roli, ular o'rtasidagi munosabatlar, balki xo'jalik yuritishining butun falsafasi-turistik marketing qayta ko'rib chiqilmoqda. Umumjahon axborot tizimi ananaviy marketing usullarini samarasiz qilib qo'ymoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchi marketologlar yangi elektron aloqa vositalari imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishni istasalar, tarmoqning bu xususiyatlarini hisobga olishlari zarur.

Turizm sohasida ijtimoiy aloqa, marketing axborot kabi yo'nalishlarni jadal rivojlantirish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini yuksaltirish mumkin.

Turizm sohasidagi axborot texnologiyalari shu soha ichida va tashqarisida, tijorat maqsadida qo'llaniladigan barcha kommunikasiya hamda axborot texnologiyalari majmuidir. Internet va global axborot tarqatish texnologiyalari turizm industriyasining asosiy axborot texnologiyalari hisoblanadi. Yil sayin aviachiptalar va mehmonxonalariga avvaldan buyurtma berish tizimidan foydalanayotgan turistik firmalarining soni ortib bormoqda. Bunday tizimlar jahonning barcha mehmonxonalarida xonaga buyurtma berish qisqa vaqt davomida ish joyini tark etmaganholda buyurtma berish, narxlar, imtiyozlar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Avvallari bu ishlarni amalga oshirish uchun uzoq vaqt va mablag' kerak bo'lardi. Tizimga kiruvchi agentliklar hozirgi kunda o'tgan yilgi ma'lumotnomalardan emas, balki eng oxirgi ma'lumotlardan foydalanishadi. Alean tizimining qatnashchilari qimmatbaho dasturiy ta'minotni sotib olishlariga hojat yo'q, chunki bu tizim Internet tarmog'ining standart texnologiyalariga asoslangan.

Ijtimoiy aloqa sifati bilan birgalikda aloqa operatorlik sohalari haqida ma'lumot berib o'tsak.

**Аннотация:** в статье подробно изучено биометрическое описание роста ветвей и формирования плодов в интенсивных яблоневых садах. Установлены оптимальный рост ветвей яблони и биометрическая характеристика формирования плодов в вариантах омолаживающей и нормализующей обрезки у изученных 3-х различных районированных сортов яблони.

**Ключевые слова:** интенсивные сады, сорта яблони, рост ветвей, формирование плодов, биометрическая характеристика, омолаживающий и нормализующий метод обрезки.

### **Kirish**

Daraxtlarning vegetativ va reproduktiv faoliyatini tartibga solish hamda uni boshqarish omillari-agrotexnikaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, bunda aynan daraxtlarga muayyan shakl berish va kesish usuli hamda darajalariga e‘tibor qaratishni talab etadi. Bog‘da daraxtlarni to‘g‘ri joylashtirishda, ularga shakl berishda va kesish usuli va darajalariga rioya qilib kesilganda, ularning o‘sish va rivojlanishi me‘yorida kechib, novdalar faqat maqbul muhitga yoki bo‘lmasa maqbul sharoitlarga yaqin tomonga yo‘nalishini doimo ta‘minlash zarurdir.

Daraxt navi va avlodiga xos xususiyatlarini uning tashqi muhit ta‘sirı reaksiyasiga qarab, doimiy bo‘ladi. Bog‘bonlarning samarali harakati ularning

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

qanday kesish usuli va darajasini qoʻllaganiga qarab, daraxtlarning oʻsish hamda rivojlanishining obyektiv qonunlarga mos kelishini, mutaxassislar har bir usulning har bir daraxtga qay darajada taʼsir etishini aniq oʻrganib va shunga koʻra, ular shuncha serhosil boʻladi [1,25].

*Tajribaning maqsadi:* Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida Respublikamizda rayonlashtirilgan olma navlari hosil beruvchi novdalarining siklik ravishda yoshartiruvchi va meʼyorlashtiruvchi kesish usullarini hamda daraxtning oʻsuv holatiga qarab, oʻsuvchi shoxlarni qisqartirishning eng samarali darajalarini ilmiy asosda aniqlash orqali intensiv olmazlarda har yili muttasil moʻl va sifatli hosil yetishtirish texnologiyasi boʻyicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** amalga oshirildi:

- Mevali daraxtlarni oʻsuvchi shoxlarini kesishda uning qirqish usuli va darajasiga bogʻliqligini oʻrganish, asosiy fitometrik koʻrsatkichlarining oʻsish, rivojlanish va hosildorlikka taʼsirini aniqlashdan iboratdir.
- Shuningdek, qisman olma daraxtlarida turli xil kesish usuli va qisqartirish darajalari reaksiyasiga qarab, novdalarning oʻsishi davom etadi.[3,47]

## 1-jadval

**Asosiy hosil shoxlarining oʻsish dinamikasiga kesish usuli va darajalarining taʼsiri (sm)**

Hosil berib boʻlgan oʻsuvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldirilgan shoxlarda hosil kurtaklari soni (dona)	Yillar				Oʻrtacha
		2007	2008	2009	2010	
<b>"Golden Delishes" olma navi</b>						
Nazorat	qisqartirilmaydi	62,0	56,0	49,5	46,0	53,4
3 yillik sikl	4-8	51,5	45,0	41,0	38,0	44,5
	8-12	53,0	47,0	41,5	39,0	45,1
	12-16	54,0	48,0	43,5	39,5	46,1
	qisqartirilmaydi	58,0	52,0	45,0	43,5	48,2
4 yillik sikl	4-8	52,0	59,0	44,0	39,0	53,7
	8-12	53,5	48,0	45,0	40,5	46,7

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

	12-16 qisqartirilmaydi	55,5 60,0	49,0 55,0	46,5 50,0	42,0 44,5	48,2 52,4
<b>"Renet Simirenko" olma navi</b>						
Nazorat	qisqartirilmaydi	63,0	58,0	50,0	47,0	54,5
3 yillik sikl	4-8	52,0	47,0	43,0	39,0	46,5
	8-12	54,0	48,5	44,5	40,0	45,5
	12-16	56,0	50,0	45,0	42,0	48,7
	qisqartirilmaydi	60,0	54,0	47,0	45,0	51,5
4 yillik sikl	4-8	53,0	48,0	43,5	40,0	46,1
	8-12	55,5	49,5	46,0	41,0	47,7
	12-16	57,0	52,0	47,0	43,0	49,7
	qisqartirilmaydi	62,0	56,5	49,0	46,5	53,5
<b>"Pervents Samarkanda" olma navi</b>						
Nazorat	qisqartirilmaydi	60,0	55,0	48,0	44,0	51,7
3 yillik sikl	4-8	50,0	43,0	40,0	37,5	42,6
	8-12	50,5	45,5	42,0	39,0	44,2
	12-16	51,5	47,0	45,0	41,0	46,4
	qisqartirilmaydi	58,5	54,0	47,5	43,0	50,7
4 yillik sikl	4-8	51,5	44,0	42,0	38,0	44,6
	8-12	53,0	47,0	45,0	39,5	45,4
	12-16	54,0	49,0	44,0	42,0	47,2
	qisqartirilmaydi	58,0	55,0	51,0	44,0	51,0
Nsr <sub>095</sub>						4,8
P, %						3,7

Bizning tadqiqotlardan shu narsa aniqlandiki o'suvchi payvandtakka payvand qilingan olmaning rayonlashtirilgan navlarida birinchi tartibdagi shoxlar uzunligining har yilgi o'sishi nihol o'tkazgandan keying birinchi yillarida navlar bo'yicha 39-47 sm ni tashkil etdi, bu esa olma daraxti uchun me'yoriy holat hisoblanadi.

Tadqiqot o'tkazilgan yillarda (2021-2023) olmaning asosiy skeletli shoxlarining o'sish dinamikasi (2-jadval ma'lumotlariga qarang) o'rganilgan navlar bo'yicha kamaydi, bu esa olma o'simligining o'sishi va rivojlanishi uchun to'liq mos kelishi haqida guvohlik beradi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Shunday qilib, Golden Delishes navida uch-to'rt yillik o'rnini bosuvchi sikl bo'yicha yoshartiruvchi kesish usulida 4-16 sm hosil kurtaklari saqlab qolinganda asosiy shoxlarning uzunligi 38,0-55,5 sm dan iborat bo'ldi, Renet Simirenko navida 39,0-57,0 sm va Pervenets Samarkanda navida bu ko'rsatkich 37,5-54,0 sm bo'ldi, nazorat variantida esa mos ravishda: 46,0-62,0 sm, 47,0-63,0 sm va 44,0-60,0 sm ni tashkil etdi.

Birinchi tartib shoxlari uzunligining har yilgi o'sishi yillar bo'yicha hosil berib bo'lgan shoxlar o'rniga o'rindosh sifatida yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usuli qo'llanilgan variantlarda nazoratga nisbatan 0,7-9,1 sm dan kamaydi, bu esa olma daraxtining to'liq o'sishi uchun to'liq sharoit yaratiladi.

Kesish jarayonida daraxtlarni 3-4 yil davomida o'rinbosar qoldirib hosil shoxlarini yoshartirganda, asosiy hosil beruvchi shoxlar 38-60 sm ni, nazorat variantida 60-63 sm ni tashkil qildi. Turli xil kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda ushbu ko'rsatkich 3,5-21 % gacha kamaygan. Shuningdek, hosil beruvchi asosiy shoxlarning o'sishi 42-52 sm olma daraxtini hosil berish davriga mos keladi va bu ko'rsatkichni kesish usullari va darajalari bilan saqlab qolish mumkinligi aniqlandi.

Meva daraxtlarining hosildorligini oshirishda ularda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar tizimi bilan birga kesish usuli va darajalariga rioya qilish eng muhim ahamiyatga egadir.

## 2-jadval

Asosiy o'suv shoxlari miqdori va ularning joylanishida kesish usullari va darajalarining ta'siri

Hosil berib bo'lgan o'suvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldirilgan shoxlarda hosil lurtaklari soni (dona)	Daraxt yaruslari bo'yicha			Asosiy o'suvchi shoxlar miqdori
		pastki qism	o'rt qism	yuqori qism	
<b>"Golden Delishes" olma navi</b>					
Nazorat	qisqartirilmaydi	26	36	16	78
3 yillik sikl	4-8	11	22	18	41

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

	8-12	13	24	10	47
	12-16	15	28	12	55
	qisqartirilmay di	16	30	14	60
4 yillik sikl	4-8	11	23	9	43
	8-12	13	25	11	49
	12-16	16	30	12	58
	qisqartirilmay di	21	35	17	68
<b>"Renet Simirenko" olma navi</b>					
Nazorat	qisqartirilmay di	28	42	20	50
3 yillik sikl	4-8	14	20	11	45
	8-12	16	22	13	51
	12-16	18	25	15	58
	qisqartirilmay di	20	27	16	63
4 yillik sikl	4-8	15	21	12	48
	8-12	17	23	13	53
	12-16	19	26	16	61
	qisqartirilmay di	20	28	17	65
<b>"Pervents Samarkanda" olma navi</b>					
Nazorat	qisqartirilmay di	23	35	17	75
3 yillik sikl	4-8	11	21	7	39
	8-12	12	22	9	43
	12-16	14	24	13	51
	qisqartirilmay di	16	26	15	57
4 yillik sikl	4-8	11	22	7	41
	8-12	13	24	8	46
	12-16	14	26	9	51

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

	qisqartirilmay di	17	27	16	60
<b>Nsr095</b>					5,9
<b>P, %</b>					4,1

Yuqorida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, hosil berib bo'lgan shoxlarni kesishda o'rindosh novdalarni uch-to'rt yillik sikl bilan yoshartirilgan variantlarda navlar bo'yicha o'sayotgan shoxlarning umumiy soni nazoratga nisbatan 12-18% ga kamaydi. Bu kamayish ko'proq eski, hosil berib bo'lgan shoxlarni kesish hisobidan bo'lganligi kuzatildi. Hosil bergan shoxlar butab tashlanganda ularning o'rniga yangi, ko'proq yosh va unumli hosil beruvchi shoxlar hosil bo'lganligi aniqlandi.

O'rganilayotgan 3 xil olma navlar bo'yicha turli xil kesish usuli va darajalari qo'llanilgan barcha variantlarda daraxt tanasida shox-shabbaning yaruslar bo'ylab joylashishi juda ham qulay bo'lib, o'rindosh novdalarni almashtirish uchun uch-to'rt sikl bilan bilan yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usuli va qisqartirish darajalari qo'llagan variantning pastki yarusida-32%, o'rta yarusida 58% va yuqori qavatida 10% yangi o'suvchi shoxlar joylashdi. Nazorat variantida esa o'suvchi shoxlar yaruslar va daraxt tanasi bo'ylab qariyib teng miqdorda joylashdi, ushbu ko'rsatkich sinalayotgan variantlar bilan taqqoslanilganda juda ham kam qulaylikni tashkil etadi.

Hosil berib bo'lgan shoxlarni uch yillik sikl bo'yicha me'yorlashtirilgan, o'rmini bosuvchi, yoshartiruvchi kesish usuli qo'llanilganda eski, samarasiz shoxlar kesib tashlanadi va ularning o'rniga yangi, yosh, tez o'sadigan unumdor novdalar o'sib chiqib, muttasil mo'l va sifatli hosil olishga imkon yaratadi.

2021-2023 yillarda o'rganilgan olmaning Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervenets Samarkanda navlarida 3-4 yillik siklik yoshartiruvchi kesish usuli qo'llash jarayonida, asosiy shoxlarni o'rindosh sifatida qoldirib, har 3-4 yilda bir marta yoshartirilganda, uning o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi va bu 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi. Kesish jaryonida hosil berib bo'lgan asosiy shoxlarning soni 8-51%gacha kamayishiga va barcha qoldirilgan shoxlarda biologik va fiziologik jarayonlarning yaxshilanishiga imkoniyat yaratilib, hosildorlikning oshishiga va meva sifatining tubdan yaxshilanishiga olib keldi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Shuningdek, tajribada o'rganilgan 3 xil olma navlarida 3-4 yillik bir marta o'rindosh sifatida hosil beruvchi hosil shoxlarini yoshartirish orqali olma daraxtining optimal o'sishi va rivojlanishiga sharoit yaratilishi, daraxt doimiy ravishda hosil beruvchi shoxlarga ega bo'lishi, hamda muttasil mo'l va sifatli hosil berishi aniqlandi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A, Aripov A, Urug'li intensiv meva bog'lari - T., "Sharq" 2013, 224 bet.
2. Artikova X.T, Yunusov R, Salimova X.X, Klimaticheskoye usloviya I rostitelnost subtropicheskoy tyoploy I jarkoy pusini-Problemi rekultivatsii otxodov opita promishlennost I selskoxozaystva-215 212-215 betlar.
3. Artikova X.T, Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Intensiv olmalar hosildorligini va sifat ko'rsatkichlarini zamonaviy resurs tejamkor innivatsion texnologiyalar bilan bog'liqligi" Namangan 2023 549-550 betlar.
4. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmalarda o'sish va hosildorlikning nav payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi" "Durdon", Buxoro 2021, 102-bet.
5. Yunusov R, Ganiyeva F.A, To'rayeva A.A, Rostenii plodoshenie persika v orashalmax sadax v zavisimosti konstruksii kroni.J., "Stolisa nauka" M-2021, <http://www.scientific-capital.ru>
6. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Kesish usuli va darajalarining olma daraxti barg sathiga ta'siri. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi-4/2021. <http://journal.buxdu.uz>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

UO‘T.634.11(075)

**Intensiv olmazorda yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesishni qisqartirilgan novdalarning miqdori, vazni va strukturasi ta’siri**

BuxDU Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrası professorı

**Yunusov Rustam**

BuxDU Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Sharipova Ozodaxon Olimovna, Murodova Ozoda Umedovna**

**Annatsiya:** Maqolada intensiv olmazlarda yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi kesishni qisqartirilgan navlarni miqdori, vazni va strukturasi ta’siri o‘rganilgan. Rayonlashtirilgan 3 xil olma daraxtlarini kesish usuli va darajalari yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi 3-4 yillik kesish jarayonida aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** Intensiv olma bog‘lari, 3 xil rayonlashtirilgan nav, susaytiruvchi payvandtag, navlarni miqdori, vazni va strukturasi, meyorlashtiruvchi va yoshartiruvchi kesish usuli.

**Аннотация:** в статье рассмотрено влияние омолаживающей и нормализующей обрезки на количество, массу и структуру редуцированных сортов в интенсивных условиях. Определены способы и объемы обрезки 3-х видов районированных яблонь в ходе омолаживающей и нормализующей 3-4-летней обрезки.

**ключевые слова:** интенсивные яблоневые сады, 3 типа районированных сортов, аттенуационная прививка, количество, масса и структура сортов, стандартизирующий и омолаживающий метод обрезки.

## **Kirish**

Mevachilik qishloq xo‘jaligining eng muhim va o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, urug‘li mevali bog‘lar, jumladan, intensiv olma va nokzorlar Respublikamizda oxirgi yillarda keskin ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2006 yildagi PF-3709 raqamli “Meva-sabzavotchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi va “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O‘zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asarida ko‘rsatilgan tavsiyalar asosida mamlakatimizda 2011 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

chiqarish faoliyati doiralarini takomillashtirish va barqaror rivojlantirish dasturi belgilab olindi.

Intensiv mevachilik sohasida meva ishlab chiqarishni keskin oshirish, sifatini tubdan yaxshilash hamda tannarxini kamaytirish kabilar asosan yangi serhosil intensiv bog'lar barpo qilish va mavjud bog'lardan muttasil mo'l va sifatli olma mevalari hosilini yetishtirish rejalashtirilgan[1,2].

Oxirgi yillarda mamlakatimizda jadallashtirilgan (intensiv) mevali bog'lar barpo etilmoqda, bu bog'larda mevali daraxtlarga shakl berish va navlarning biologik xususiyatlarini inobatga olib, kesish usullari o'rganilgan bo'lsada, nav va uning biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, daraxtlarning yoshiga qarab, hosil beruvchi 3- 4 yillik shoxlarni yoshartirish sikli bo'yicha kesish usullari va darajalari O'zbekiston sharoitida ilmiy asosda atroflicha o'rganilmagan[3,4].

Bugungi kunda intensiv bog'lardan yuqori sifatli hosil yetishtirish bilan birgalikda, yaratilgan bog'larni tezroq, ya'ni, ekilganidan keyin 2-3 yilda hosilga kirishini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Intensiv bog'larda payvandtagi sekin o'suvchi, tupi kichik yuqori sifatli hosil beruvchi navlar tanlanib, ularga yuqori, agrotexnik tadbirlar majmuiy qo'llanilganda, 25-30 t/ga sifatli hosil yetishtirish imkoniyati yaratiladi[5].

O'zbekistonda va chet mamlakatlarda olma daraxtlarining ortiqcha shox-shabbalarini kesish usullari va darajalarining o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'siri bo'yicha bir guruh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borilgan va turli xil tuproq-iqlim sharoitida navning biologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish asosida ilmiy ma'lumotlar olishgan va muayyan sharoitga mos ilmiy tavsiyalar berishgan. Lekin, shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu boradagi bajarilgan tadqiqotlar mevali daraxt navlarining biologik xususiyatlari, shox-shabbalarining meva berishi, ularning yoshartirish sikllarini to'liq ochib berish imkoniyatini bermaydi.

Mevali daraxt novdalarini 3-4 yil davomida siklik ravishda yangilab turish uchun qo'llaniladigan yoshartiruvchi, me'yorlashtiruvchi kesish usullari va shoxlarning holatiga qarab, qisqartirish darajalarini aniqlash hamda tanasiga muayyan shakl berish tadbiri -hosildorlikni oshirish va sifatini yaxshilashdagi eng muhim agrotexnik omil bo'lib, ushbu tadbir O'zbekistonning muayyan tuproq-iqlim sharoitida ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Shu jumladan, Buxoro viloyatida ham mavjud mevali bog'larda olma yetishtirish jarayonida daraxtlarning biologik va navning xususiyatlariga, novdalarining meva berish yili va kesishning

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi usullari va qirqish darajalariga alohida e'tibor berishni talab etadi[6].

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tanlangan tadqiqot yo'nalishi o'ta dolzarb va aktual hisoblanib, mevali daraxtlarning hosildorligini oshirishda va sifatini yaxshilashda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tajribaning maqsadi, uslubi va sharoiti Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida Respublikamizda rayonlashtirilgan olma navlarini hosil beruvchi novdalarining siklik ravishda yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usullarini hamda daraxtning holatiga qarab, o'suvchi shoxlarni qisqartirishning eng samarali darajalarini ilmiy asosda aniqlash orqali intensiv olmazorlarda har yili mo'l, yuqori sifatli hosil yetishtirish texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- Mevali daraxtlarning o'suvchi shoxlarini qirqishda uning qirqish usuli va darajasiga bog'liqligini o'rganish, asosiy fitometrik ko'rsatkichlarining o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'sirini aniqlash;

- Daraxt tanasining yorug'lik bilan qanday ta'minlanganligi va fotosintez mahsuldorligini aniqlash;

- Daraxt tanasida generativ organlarning shakllanishi va ularning joylashishi, hosil va uning sifatiga ta'sirini o'rganish;

Agrokimyoviy tadqiqotlar natijalari bo'yicha yaylovli, eski va yangi sug'oriladigan maydonlarda chirindining miqdori juda kam. Tuproqning haydalma qatlamida chirindi miqdori 0.8-1.4% azot 0,06-0,12% fosforni. yalpi miqdori 0,11-0,18%, almashinuvchan kaliy miqdori 1,5-3,0% ni tashkil qiladi.

"Amin Hayot bog'i" fermer xo'jaligining tuprog'i allyuvial – qadimdan sug'oriladigan, kuchsiz sho'rlangan tuproqdan iborat bo'lib, suv sathining yuza joylashishi bilan (2.3-2.5 m) farqlanadi, mexanik tarkibi bo'yicha – o'rtacha soztuproqli hisoblanadi.

Intensiv mevali bog'larda kesishning usul va darajalariga to'g'ri rioya qilib, undan oqilona foydalanganda, daraxtlarning o'sish, rivojlanishi, ichki va tashqi sharoitlari uchun qulay muhit yaratilib, generativ organlari(kurtaklar)ning har yili ko'p miqdorda tugishiga imkon yaratiladi, bu esa har yili yuqori hosil yetishtirishni ta'minlaydi. Bunday bir xil fonda konturlar bo'yicha har yili kesishning to'g'ri va aniq qoidalariga rioya qilib, chegaralangan qirqish usulini qo'llash orqali shoxlarning egilishi yo'qolib, daraxt tanasining ichki qismidagi keraksiz shox-

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

shabbalar olib tashlanadi. Natijada, daraxtdagi mavjud shox-shabbalar yorug'lik, havo, oziqa, suv va boshqa moddalardan samarali foydalanib, yosh novdalarning har yilgi o'sishi o'rtacha 40-60smni tashkil qiladi va o'rtacha hosildorlik 200-250 s/gani tashkil etadi.

Tajriba uslubiyoti: Tajriba o'tkazilgan yillarda o'rganilgan navlar bo'yicha umumqabul qilingan uslubiy qo'llanmalardan hamda olma daraxtini fitometrik ko'rsatkichlari, yorug'lik va fotosintez mahsuldorligi, hosildorlik va meva sifat ko'rsatkichlarini VNIIS (1982) yilda ishlab chiqarilgan uslubiyotidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba 2021-2023 yillar davomida Buxoro tumanidagi "Hayot Amin bog'i" fermer xo'jaligida o'tkazildi. Mevali daraxtlar bog'ga 6x4 m tartibda o'tkazilgan.

Daraxt tanasining ustki qismida joylashgan novdalariga kesishning ta'siri uning kesish darajasi va usuliga, nav xususiyatlariga, yashash muhitiga hamda agrotexnik parvarishlash darajalariga bevosita bog'liq. Mevachilik amaliyotidan ma'lumki, faqat ma'yoriy darajada har yili yuqori sifatli o'suvchi va hosil beruvchi novdalar bilan ta'minlaydigan kesish usuli qo'llanilgan daraxtlar uzoq vaqt davomida o'z unumdorligini saqlab qolish qobiliyatiga egadirlar. O'sish qobiliyatini yo'qotgan daraxtlarda ularga xos bo'lgan davriy hosil berish hodisalari bilan birga, odatdagi hosilli yillardan keyin qishga nisbatan chidamliligi pasayishi kuzatiladi.

Daraxtlarning qarish jarayoni avval o'suvchi shoxlarda, keyin esa yarim skeletli va skeletli yog'ochlarning tugashi bilan boshlanadi. Daraxtlarning vegetativ va generativ organlari faoliyati o'rtasidagi nisbatlarning tartibga solishi va boshqarishi agrotexnik omillarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

2021-2023 yillar davomida o'tkazilgan tadqiqotlarda navlar va variantlar bo'yicha hosil bergan shoxlarni o'rindosh sifatida 3-4 yillik sikl asosida yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi kesish usullarini o'tkazish natijasida, shoxlarning soni, massasi va tuzilishi kesish darajasiga bog'lik ravishda ko'payganli aniqlandi.

## 1-jadval

**Kesish jaryonida qisqartirilgan novdalar miqdori, vazni va strukturasi  
(o'rtacha 2021-2023 yillar uchun)**

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Hosil berib bo'lgan o'suvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldirilgan shoxlarda hosil kurtaklari soni (dona)	Kesilgan shoxlarni o'sish yili			Kesilgan shox-shabba massasi, kg	Kesilgan hosil kurtaklari soni, dona
		Bir yillik	Ikki yillik	Uch yillik		
<b>"Golden Delishes" olma navi</b>						
Nazorat	qisqartirilmaydi	3	2	1	15	23
3- yillik siklik almashish bo'yicha yoshartiruvchi kesish usuli	4-8	88	49	19	4,9	371
	8-12	81	43	16	4,1	309
	12-16	76	39	13	3,3	289
	qisqartirilmaydi	31	21	7	2,7	135
4- yillik siklik almashish bo'yicha yoshartiruvchi kesish usuli	4-8	61	17	8	3,8	289
	8-12	53	13	7	3,3	213
	12-16	45	11	5	2,6	198
	qisqartirilmaydi	21	10	2	1,9	77
<b>"Renet Simirenko" olma navi</b>						
Nazorat	qisqartirilmaydi	1,1	4	2	1,9	77
3- yillik siklik almashish bo'yicha yoshartiruvchi kesish usuli	4-8	99		23	5,3	350
	8-12	91	58	20	4,7	289
	12-16	83	51	15	4,0	235
	qisqartirilmaydi	45	44	9	3,1	111

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

4- yillik siklik almashish bo'yicha yoshartiruv chi kesish usuli	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	72 66 59 31	45 39 27 23	17 15 11 5	3,9 3,2 2,5 2,2	288 244 177 77
<b>"Pervents Samarkanda" olma navi</b>						
Nazorat	qisqartirilmaydi	3	2	2	1,6	27
3- yillik siklik almashish bo'yicha yoshartiruv chi kesish usuli	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	85 79 71 23	48 42 35 18	17 13 10 6	4,7 4,0 3,2 2,4	354 291 230 136
4- yillik siklik almashish bo'yicha yoshartiruv chi kesish usuli	4-8 8-12 12-16 qisqartirilmaydi	63 56 50 20	36 29 27 13	13 9 7 4	3,5 2,8 2,0 1,5	261 202 144 74
Hcp <sub>095</sub> %						2,1 3,5

Hosil beruvchi shoxlarni 3-4 yillik siklik almashinuvchi kesish bo'yicha yoshartirish va qoldirilgan hosil beruvchi novdalarni me'yoriy qisqartirish natijasida, ya'ni hosil berish uchun qoldirilgan novdalarni 4-8, 8-12 va 12-16ta hosil kurtagi qoldirib kesilgan variantlarda kesish darajasining kuchayishi bilan bu ko'rsatkichlar oshganligi kuzatildi. Kesilgan shox-shabbalarning massasi kesish variantlarida Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervenets Samarkanda navlarida mutassil ravishda 1,2-3,4 kg, 0,-3,4 kg va 0,1-3,1 kg nazorat variantiga nisbatan oshganligi tadqiqot natijalarida aniqlangan.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

O'rganilayotgan Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervenets Samarkanda navlarida 3-4yillik siklik almashinish bo'yicha hosil bergan shoxlarni yoshartirish va hosil berish uchun koldirilgan shoxlarni 4-8, 12-16 bo'g'inli kurtak qoldirib me'yoriy kesish darajalarida qir qilganda, hosil shoxlari nazorat variantiga nisbatan mutanosib ravishda: 54-378, 5-273 va 47-327 dona novdalar ko'proq kesildi.

## **Xulosa**

Shunday qilib, tadqiqot natijalaridan shu narsa aniqlandiki, olma navlarining biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tana yo'g'onligini kamaytirish va ko'paytirish qonuniylik tendensiyasi unda olib borilgan kesish usuli va darajalariga bog'lik ekanligini tadqiqot natijalari ko'rsatdi. Ya'ni, 3-4yillik siklik almashinish bo'yicha hosil berib bulgan novdalarda yoshartiruvchi kesish usulini qo'llab, hosil berish uchun koldirilgan shoxlarda me'yoriy kesish darajalari bo'yicha 4-8, 12-16 bo'g'inda kurtak qoldirib qir qilganda, olmaning naviga qarab, butab tashlangan novdalarining massasi va soni hosil novdalarining qisqartirish darajasi sayin ko'payganligini ko'rsatmokka.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aripov A, Aripov A, Urug'li intensiv meva bog'lari - T., "Sharq" 2013, 224 bet.
2. Artikova X.T, Yunusov R, Salimova X.X, Klimaticheskoye usloviya i rostitelnost subtropicheskoy tyoploy I jarkoy pusini-Problemi rekultivatsii otxodov opita promishlennost I selskoxozaystva-215 212-215 betlar.
3. Artikova X.T, Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Intensiv olmozorlar hosildorligini va sifat ko'rsatkichlarini zamonaviy resurs tejankor innivatsion texnologiyalar bilan bog'liqligi" Namangan 2023 549-550 betlar.
4. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmozorlarda o'sish va hosildorlikning nav payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi" "Durdon", Buxoro 2021, 102-bet.
5. Yunusov R, Ganiyeva F.A, To'rayeva A.A, Rostenii plodoshenie persika v orashalmax sadax v zavisimosti konstruksii kroni.J., "Stolisa nauka" M-2021, <http://www.scientific-capital.ru>
6. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Kesish usuli va darajalarining olma daraxti barg sathiga ta'siri. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi-4/2021. <http://journal.buxdu.uz>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

UO‘T.634.11.

## **Olma daraxtini o‘sovchi novdalarining miqdori va uzunligining yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuliga bog‘liqligi**

BuxDU Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrası professori

**Yunusov Rustam**

BuxDU Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi **Qadamova Muxlisa Xudoyshukur qizi, Yuldoshova Iqboljon**

**Ikrom qizi**

**Annatsiya:** Maqolada intensiv olmazlarda yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi kesishni olma daraxtini o‘sovchi novdalarining miqdori va uzunligining yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuliga bog‘liqligi o‘rganilgan. Tajriba natijalarda intensiv olma daraxtini o‘sovchi novdalarining miqdori va uzunligini eng maqbul ko‘rsatkichlari yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuli o‘tkazilganda qo‘lga kiritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Intensiv bog‘, 3 xil rayonlashtirilgan olma navi, o‘rta sekin o‘sovchi payvandtag, novdani miqdori va uzunligi, yoshartiruvchi va me‘yorlashtiruvchi kesish usuli.

**Аннотация:** в статье рассматривается зависимость омолаживающей и нормализующей обрезки от количества и длины ветвей яблони от способа омолаживающей и нормализующей обрезки на интенсивных полях. В результате эксперимента получены оптимальные параметры количества и длины растущих ветвей интенсивной яблони при проведении метода омолаживающей и стандартизирующей обрезки.

**Ключевые слова:** интенсивный сад, 3 разных районированных сорта яблони, средне-медленнорастущий привой, количество и длина ветвей, омолаживающий и нормализующий метод обрезки.

## **Kirish**

Kesish tadbiri bu meva daraxtlarining o‘shishi va rivojlanishiga ko‘proq ta‘sir etuvchi agrotexnik usullaridan biri hisoblanadi.

Intensiv mevali bog‘larning rivojlanishi va doimiy ravishda ulardan muttasil mo‘l va sifatli hosil yetishtirish uchun quyidagi talablar amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Olmaning yuqori, mahsuldor payvandtaglarga ulangan navlarning kombnasiyalaridan foydalanish, kamgabaritli olma daraxti tanasini shakllantirish,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

yuqori agrotexnik tadbirlarni qo'llash fonida gektariga nihollarni zich joylashtirish hamda kesish usuli va darajalariga qat'iy amal qilish lozimligi uqtirladi. To'g'ri va o'z muddatida qilib bajarilgan kesish usullari daraxtning shakllanishini tezlashtiradi, ularning erta hosilga kirishini ta'minlab, yashash davrida mutassil mo'l hosil olish imkoniyatini yaratish bilan birga, mevaning sifatini tubdan yaxshilaydi.

Boshqa ko'p yillik daraxtlar kabi olma daraxtida ham, uning o'sish jarayonida qutblanish mavjudligi ma'lum: o'sish nuqtasining eng yuqori kurtigidan bir yillik shoxlarda tik o'suvchi eng kuchli novda hosil qiladi. Pastda joylashgan ikki yon kurtaklaridan, bir yoki bir nechta kuchsiz o'suvchi novdalar hosil qilib, ularning o'sish qobiliyatini kuchsizlantiradi[1,2].

Bir yillik o'suvchi novdalarda qisqartirishning o'simliklarga nisbatan reaksiyasining o'zgarishini navlarning biologik xususiyatlariga, qisqartirilayotgan novdalarning uzunligi va yo'g'onligiga, daraxt tanasida shox-shabbaning qanday joylashganligiga, turli xil qisqartirish darajasiga qarab aniqlanadi. O'suvchi novdalarni qisqartirish qancha kuchli bo'lsa, shuncha tiklanadigan shoxlar hosil bo'lishining faolligi yuqori bo'ladi va qisqartirilgan o'suvchi novdalarda kesish joyidan chetga ketishining burchaklari kam bo'ladi[3].

Tajriba uslubiyoti: Tajriba o'tkazilgan yillarda o'rganilgan 3 xil rayonlashtirilgan navlar bo'yicha umumqabul qilingan uslubiy qo'llanmalardan hamda olma daraxtini parvarishlash, yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usullari, fitometrik ko'rsatkichlarini VNIIS (1982) yilda ishlab chiqarilgan uslubiyotidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba 2021-2023 yillar davomida Buxoro tumanidagi "Hayot Amin bog'i" fermer xo'jaligida 3 xil rayonlashtirilgan olma navlari Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervents Samarkanda navlari bog'ga o'tkazish tartibi 6x4 m, payvandtag sekin o'rta o'suvchi MM-106 payvandtagi, tuprog'i qadimdan sug'oriladigan o'tloqi olma bog'ida o'tkazildi.

Bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan ko'pgina ilg'or mutaxassis va tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, kesish usuli va darajasini qo'llash orqali daraxtlarga shakl berilib, uning tanasi baquvvat va mustahkam skeletga ega bo'ladi. Shu tadbir qo'llanilishi tufayli, daraxt tanasida o'suv va hosil shoxlarining barobar joylashishi ta'minlanib, sug'orish va oziqlantirish tartibini yaxshilaydi, ularning o'sish, rivojlanishi va meva shakllanishiga hamda meva berishiga qulay sharoit yaratilib, o'suv shoxlari va mevalarning rivojlanishini kuchaytiradi, hosil sifati



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

keskin yaxshilanadi, zarakunandalarga, kasalliklarga va qishga chidamliligini oshiradi[4,5,6].

Shoxlarni qisqartirish asosan, shoxlarning eng yuqorigi (uchki) qismidagi hosil yoki vegetativ shoxchalarni, yarim skeletli yoki skeletli qismlarini olib tashlashdan iboratdir. O'suv nuqtasining yuqori qismini olib tashlash, odatda kuchsiz kesish deb hisoblanadi, shoxning yarmidan ko'prog'ida yaxshi rivojlangan kurtaklar mavjud bo'lgan yoki novdalarning katta qismini kesish bu kalta kesish yoki kuchli qisqartirish turiga kiradi.

Kuchli kesishni mevali daraxtlarda faqat alohida vaziyatlarda qo'llash mumkin: haddan tashqari novdalar o'sib ketganda, novdalarni birga ergashishini tiklash zaruriyatida va boshqa usullar bilan bunga erishishning iloji bo'lmaganda, pishmagan novdalarni kesish orqali yoki daraxtga ma'lum bir muayyan shakl berish uchun jiddiy aniq tartibda shoxlanishini ta'minlash maqsadida, alohida shoxlarni yoki bo'lmasa, butun daraxt novdalarini yoshartirishda, shox-shabba hajmini pasaytirishda va boshqa vaziyatlarda o'tkazish zarurdir. Hosil berib bo'lgan shoxlarning o'rnini bosish uchun uch-to'rt yillik sikl bo'yicha yoshartiruvchi kesish qo'llanilgan variantlarda navlar bo'yicha o'sayotgan shoxlarning umumiy soni 10-14% kamayganligi ko'pgina tajribalarda ham aniqlangan.

Tadqiqot yillarida (2021-2023 yillar) 3 xil olma navlarida kesish usuli va darajasini kuchaytirish va kamaytirish yo'li bilan o'rindosh sifatida hosil beruvchi shoxlarni 3-4 yillik siklik yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish tadbiri qo'llanilganda, o'suv nuqtalari miqdorining bitta daraxtdagi novdalar soni 9-23 % gacha qisqarishi kuzatildi.

1-jadval natijalariga ko'ra, o'rganilayotgan 3 xil olma navlarida daraxtlarning kesish darajasini kuchaytirish yoki kamaytirishiga qarab, o'sish nuqtalarining soni, ya'ni bir yillik novdalar ning bitta daraxtdagi soni Golden Delishes navida 10 dan to 120 donagacha, Renet Simirenko navida 19 dan to 144 donagacha, Pervenets Samarkanda navida 14 dan to 118 donagacha kamayganligi kuzatildi.

Bir yillik novdalarning o'sish uzunligi ularning o'sish va rivojlanishini baholashda hamda kesish tadbirining o'sish va hosildorlikka ta'sirini aniqlashda sezuvchi indikator bo'lib xizmat qiladi.

To'rt yillik o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, bitta novda uzunligi nazorat variantida o'rtacha 48,6 smdan to 32,6 smgacha bo'lib, bir yillik novdalarning o'sishini kamayishi aniqlandi. Hosil berish uchun 4-16 kurtakli bo'g'inlar qoldirib,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

hosil berib bo'lgan shoxlarni uch-to'rt yillik sikl bilan o'rndosh, yoshartiruvchi, me'yorlashtrilgan kesish usullari va darajalari qo'llanilgan variantlarda novdalarning uzunligi 41 dan to 46 smgacha o'sdi.

## 1-jadval

**Kesish usullari va darajalarining olma daraxti novdalari soniga, uzunligiga va umumiy uzunligiga bog'liqligi**

Hosil berib bo'lgan o'suvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldirilgan shoxlarda hosil kurtaklari soni (dona)	Bir yillik novdalar soni (dona)		Bir yillik novdalar uzunligi, sm		Bir yillik novdalarning umumiy uzunligi, sm	
		2021	2023	2021	2023	2021	2023
<b>"Golden Delishes" olma navi</b>							
Nazorat	qisqartirilmaydi	198	236	33	30	65.3	70.8
3 yillik sikl	4-8	162	171	37	40	59.9	68.4
	8-12	169	180	36	39	60.8	70.2
	12-16	176	190	35	37	61.6	70.3
	qisqartirilmaydi	184	210	34	37	62.6	70.6
4 yillik sikl	4-8	168	179	36	33	60.5	69.8
	8-12	175	184	35	39	61.2	70.0
	12-16	182	190	34	38	61.3	70.3
	qisqartirilmaydi	190	213	33	37	61.1	70.1
<b>"Renet Simirenko" olma navi</b>							
Nazorat	qisqartirilmaydi	207	242	34	31	70,3	75,0
3 yillik sikl	4-8	170	181	38	40	64,6	72,9
	8-12	178	190	37	39	65,8	79,1
	12-16	184	197	36	38	66,2	74,9
	qisqartirilmaydi	195	227	35	33	68,2	75,0
4 yillik sikl	4-8	176	189	37	39	65,1	73,3
	8-12	184	193	36	38	66,2	73,5
	12-16	193	201	35	37	67,5	74,0
	qisqartirilmaydi	194	208	34	36	67,7	74,9
<b>"Pervents Samarkanda" olma navi</b>							

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Nazorat	qisqartirilmaydi	196	231	33	29	64,7	67,0
3 yillik sikl	4-8	158	169	36	38	64,7	64,2
	8-12	163	175	35	37	56,9	64,8
	12-16	169	182	34	36	57,1	65,5
	qisqartirilmaydi	178	190	33	35	57,5	66,5
4 yillik sikl	4-8	165	177	35	37	57,9	65,5
	8-12	171	183	34	36	58,1	65,9
	12-16	178	190	33	35	58,7	66,5
	qisqartirilmaydi	181	191	33	35	58,7	66,8
Nsr <sub>095</sub>		2,7	3,9	4,0	2,6	3,2	2,3
P%		4,0	2,5	3,1	4,4	3,0	4,0

Sinalayotgan olma navlari ichida novdalar soni kamayishining ilgarilab ketishi bilan ular uzunligining ko'payishiga bog'liq holda hosil berib bo'lgan novdalar bo'yicha yoshartiruvchi kesish usuli qo'llagan variantlarda bitta daraxt shoxlarining umumiy uzunligi 18-20% nazorat variantiga nisbatan kam bo'ldi. Lekin bir yillik novdalarning absolyut o'sishi bo'yicha Pervenés Samarkanda navida 112,2m, Golden Delishes navida 95,6m va Renet Simirenko navida esa 98,6m ni tashkil etib, daraxt shoxlarining umumiy uzunligi yuqori hosil olish uchun to'liq, yetarli darajadadir.

Shunday qilib, hosil berish uchun qoldirilgan 3-4 yillik, siklik o'rindosh va yoshartiruvchi hamda me'yorlashtruvchi kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda bir yillik novdalar o'sishining biometrik ko'rsatkichlari yaxshi bo'lib, yuqori va sifatli hosil olish uchun yetarlidir.

2021-2023 yillar davomida 3-4 yilda hosil berib bo'lgan shoxlarni yoshartirish maqsadida olma daraxtining bir yillik novdalar soni Golden Delishes navida 9-28% ga, Renet Simirenkoda 9-21% va Pervenés Samarkanda navida 10-27% gacha kamaygani kuzatildi.

Olma daraxtining asosiy ko'rsatkichik bu bir yillik novdalarni o'sish uzunligi, bu ko'rsatkich kesish tadbiri o'tkazilgan variantlarda nazoratga nisbatan Golden Delishes navida 13-33%, Renet Simirenkoda 16-24% va Pervenés Samarkanda navida esa 20-31% gacha oshganligi qayd etildi.

Tajriba natijalari shundan dalolat beradiki, o'rganilgan kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda olma daraxtining 3-4 yillik sikl bo'yicha hosilli shoxlarni 8-12 va 12-16 kurtak qoldirib kesilgan variantlar eng yaxshi natijalar

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

berganligini ko'rish mumkin. Qoldirilgan shoxlarda biologik va fiziologik jarayonlarning yaxshilanishiga imkoniyat yaratilib, hosildorlikning oshishiga va meva sifatining yaxshilanishiga olib keldi.

Shuningdek, tajribada o'rganilgan 3 xil olma navlarida 3-4 yillik bir marta o'rindosh sifatida hosil beruvchi hosil shoxlarini yoshartirish orqali olma daraxtining optimal o'sishi va rivojlanishiga sharoit yaratilishi va daraxt doimiy ravishda hosil beruvchi shoxlarga ega bo'lishi, hamda yuqori va sifatli hosil berishi aniqlandi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A, Aripov A, Urug'li intensiv meva bog'lari - T., "Sharq" 2013, 224 bet.
2. Artikova X.T, Yunusov R, Salimova X.X, Klimaticheskoye usloviya I rostitelnost subtropicheskoy tyoploy I jarkoy pusini-Problemi rekultivatsii otxodov opita promishlennost I selskoxozaystva-215 212-215 betlar.
3. Artikova X.T, Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Intensiv olmozorlar hosildorligini va sifat ko'rsatkichlarini zamonaviy resurs tejamkor innivatsion texnologiyalar bilan bog'liqligi" Namangan 2023 549-550 betlar.
4. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmozorlarda o'sish va hosildorlikning nav payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi" "Durdona", Buxoro 2021, 102-bet.
5. Yunusov R, Ganiyeva F.A, To'rayeva A.A, Rostenii plodoshenie persika v orashalmax sadax v zavisimosti konstruksii kroni.J., "Stolisa nauka" M-2021, <http://www.scientific-capital.ru>
6. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Kesish usuli va darajalarining olma daraxti barg sathiga ta'siri. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi-4/2021. <http://journal.buxdu.uz>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## ALOE O'SIMLIGINING SHFOBAXSH XUSUSIYATLARI

**Karimova Rohatoy Murod qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh. Farovon massivi, 4B-uy

### Annotatsiya

Maqolada aloe o'simligining shifobaxsh xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, so'nggi yillardagi tadqiqotchilar, biolog-olimlar va shifokorlar tomonidan aloe o'simligining ildizi, barglari va sutining shifobaxshligi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo'llanilishi atroflicha tahlil qilingan va tegishli tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** aloe, dorivor o'simliklar, tibbiyot, xalq tabobati, aloe suti, loladoshlar, vitaminlar, mikroelementlar.

**Kirish.** Aloy-loladoshlar oilasiga mansub doim yashil, ko'p yillik o'tlar (ba'zan daraxtlar) turkumi. Tropik va subtropik mintaqalarda o'sadi. Qariyb 180 turi ma'lum. Aloe turlari gultuvakda ham o'stiriladi; ularning bargi semiz, sersuv, qalin, va tikonli. Aloe bargidan olinib qurutilgani shira-sabur surgi sifatida, kanserva qilingan sharbati esa turli yaralarni, kuygan terini, gastritni davolashda ishlatiladi. Aloening bargidan olinib konservatsiya qilingan biosimulyatorlarga boy ekstrakt organizm mustahkamligini oshiruvchi vosita sifatida teri ostiga yuboriladi [1].



**1-rasm. Aloe o'simligining ko'rinishi**

Kasmetolog va shifokorlar aloeni bakteriyaga qarshi kurashuvchi va namlovchi xususiyatlari uchun qadirlashadi. Bu maqolada biz aloening xususiyatlari va uy sharoitida undan foydalanish yo'llari to'g'risida aytmoqchimiz [2].

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Uni ko'pchilik kasmetik vositalar tarkibida uchratish mumkin. Dermatolglar aytishicha, tarkibida aloe bo'lgan vositalar-husnbuzar va toshmalarning davosi hisoblanadi [3].

**Asosiy qism.** Chet el mutaxasislari fikricha, teri va soch uchun aloedan boshqa hech qanday vositalar kerak bo'lmaydi, lekin bu nisbiy tushuncha chunki bizni urab turgan borliqda foydali elementlarga boy mahsulotlar juda kup. Har bir o'z sohasining mutahasisi dorivor mahsulotlardan uz urnida va meyorida foydalaniwni maslahat beradi.

Aloe barglarini 12 kun davomida sovutgichda saqlanadi. Maydalanadi va siqib ajratiladi tayyor bo'lgan suyuqlik idishi suvga solinadi va 3 daqiqa suv bug'ida qaynatiladi sungra tayyor bulgan sharbat sovuq bulgan holatda istemol qilinadi. Bu sharbat oshqozon yara va erozya kasaliklarida judayam yaxwi tabbiy dori sifatida istemol qilsa buladi.

Aloe sharbatining tarkibi betakarotin, kislotalar(limon, olma, gialuron), minerallar (fosfr, kaliy, mis, xrom, rux, kalsiy), uglevodlar (gulikoza, fruktoza, selluloza), efir yog'lari C, E, B guruh vitaminlaridan tashkil topgan.

Shuningdek, tibbiyotda bu o'simliklardan o't haydovchi, ichni bushatiruvchi, darmon kirituvchi va yaralarni tez tuzatuvchi vosita sifatida ham qo'laniladi.

Tarkibida aloe bo'lgan moddalar ko'z tomchilari konyuktiviti, blefrit, miopiya keratit kasaliklarida samarali yordam beradi. Og'iz bo'shlig'I yallig'lanishi kasaliklarida esa og'izni chayqash tavsiya qilinadi.

Aloe sukkulentlar turkumiga mansub Asfodel oilasiga mansub. Uning asosiy ajralib turadigan xususiyati shirali va pulpali yashil massadir.

Turli xil foydali xususiyatlar o'simlikni xalq tabobati va kosmetologiyasida foydalanish uchun almashtirib bo'lmaydigan holga keltiradi. Shuningdek, o'simlik sharbatidan ichimlik tayyorlanadi, bu barcha tana tizimlariga foydali shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi.

Aloe (Aloe) - dekorativ oddiy o'simlik. Ko'p odamlar uni derazada o'stiradilar. Aloe gullari ichimligining afzalliklarini deyarli baholab bo'lmaydi. Suyuq yallig'lanishga qarshi va yangilaydigan xususiyatlarga ega, tabiiy antioksidant bo'lib, shuningdek:

- tonik ta'siriga ega;

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

- immunitet tizimining kuchini oshiradi;
- yaralarni tez davolashga yordam beradi;
- engil laksatif ta'sirga ega.

**Aloedan tayyorlangan ichimlik tabiiy antibakterial vositadir.** U tanadan xavfli bakteriyalarni olib tashlaydi, tuberkulyoz tayoqchalari va stafilokokklar bilan kurashishda yordam beradi, tomoqni yuvish va burunni tomizish uchun javob beradi. Suyuq zaharlanishda yordam beradi, toksinlarni olib tashlaydi, ichak va oshqozonni normalizatsiya qiladi va metabolizmni yaxshilaydi.

Shuningdek, u ichak faoliyatini yaxshilash uchun ishlatiladi. Zo'r antiseptik va yaralarni davolash xususiyatlari tufayli ichimlik kuyish va yaralar uchun ishlatiladi (kuyish uchun aloe qanday ishlatilishini bu erda o'qing). O'simlikning sharbati kosmetika sanoatida yuz, qo'l va tana terisi uchun kremlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi (kosmetik mahsulotni aloe dan qanday tayyorlash mumkin?).

## **Kimyoviy Tarkibi**

Ichimlik tarkibida odamlar uchun zarur bo'lgan ko'plab vitaminlar va mikroelementlar mavjud. Tayyor mahsulotda 75 dan ortiq oziq moddalar, 20 dan ortiq minerallar va 20 dan ortiq aminokislotalar mavjud. Bunga quyidagilar kiradi:

- B guruhi vitaminlari: B1, B2, B6, B12;
- A vitamini;
- C, E guruhi vitaminlari;
- salitsil va foliy kislota;
- iz elementlarning ko'pligi (mis, kaltsiy, kaliy, rux, temir, marganets).

## **1-jadval. Turli kasalliklarga qarshi kurashishda aloening o'рни**

<b>Ko'rsatkich</b>	Ilova
<b>Tumov</b>	Aloe sharbati har bir burun yo'liga 1-2 tomchidan tomiziladi.
<b>Tomoq og`rig`i</b>	Ichimlikni 1: 1 nisbatda iliq suv bilan suyultiring, chayish uchun foydalaning.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

<b>Surunkali ich qotishi</b>	150-200 ml ichimlikni isitilgan suyuq asal bilan aralashtiring (300 g), 24 soatga qoldiring. Olingan suyuqlikni ertalab har biridan 1 osh qoshiqdan iching.
<b>Sil kasalligi</b>	100-150 g sariyog'ni 30 g aloe sharbati bilan aralashtiring, 100-150 g suyuq bo'r, 100 g kakao qo'shing. Tarkibni aralashtiring, eritib oling. Kuniga 3 marta iching.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Javodbek Mirzaali o'g'li, A. (2022). VITAMINLAR. VITAMIN HAQIDA TUSHUNCHA. VITAMINLARNING HOZIRGI KUNDA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(11), 13–16. Retrieved from <http://interonconf.org/index.php/idre/article/view/264>

2. Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o'g'li, Mardonov Mirzabek Begzod o'g'li, Sultonmirzayev Xikmatillo Eminjon o'g'li, Saydaxmatov Akobir Ravshan o'g'li. (2022). LIVER ANATOMY, HISTOLOGY AND PHYSIOLOGY. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 1(11), 8-11.

3. Asfandyorov Javodbek Mirzaali o'g'li, Xushmurodov Doniyor Turg'un o'g'li, Nazarov Asadjon Fozil o'g'li. (2022). Liver Structure and Functions, Hepatocytes Information About. American Journal of Economics and Business Management. 5(11), 215-216.



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## IQTISODIY TAHLILNING BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

**Xursanov Sherzod Ulaboyevich**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti

[xursanovsherzod2928@gmail.com](mailto:xursanovsherzod2928@gmail.com)

**Annotatsiya:** Malumki, texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda iqtisodiy tahlil tufayli ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va moddiy manfaatdorlik darajasining yaxshilanish imkoniyatlari aniqlanadi. Bularni faoliyatga o‘z vaqtida jalb etish nafaqat korxonada iqtisodiyotini, balki milliy iqtisodiyotning ham mustahkamlanishiga va aholi farovonligining oshishiga olib keladi. Bu fikr va g‘oyalarni talabalar ongiga singdirish mavzuning tarbiyaviy o‘quv maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Tahlilning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini yanada samarali yetkazish uchun unda qo‘llaniladigan an‘anaviy usullarni takomillashtirish zarur. Shu sababli ushbu maqolada iqtisodiy tahlilning bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** Tahlil, iqtisodiy tahlil, obyektiv va subyektiv omillar, tahlilning metodi.

**Аннотация:** Известно, что в период развития технологий благодаря экономическому анализу выявляются возможности развития производства, повышения его эффективности и повышения уровня материальной заинтересованности. Своевременное привлечение их к деятельности приводит не только к укреплению экономики предприятия, но и экономики страны, повышению благосостояния населения. Внедрение этих мыслей и идей в сознание учащихся считается образовательной целью предмета. Необходимо совершенствовать используемые в нем традиционные методы, чтобы более эффективно передавать содержание и важность анализа. Поэтому в этой статье мы поговорим о значении экономического анализа в профессиональной деятельности будущих специалистов.

**Ключевые слова:** Анализ, экономический анализ, объективные и субъективные факторы, метод анализа.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan uning a'zolarining ongi o'sib, rivojlanib, taraqqiy etib borgan, oqibatda uning barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlar hamda ularning natijalarini kuzatish va o'rganish asosida borliq to'g'risida turli fikrlar va qarashlar yuzaga kelgan va rivojlana boshlagan. Bular esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonining kengayishi va uning natijalarini o'sishiga hamda ular bo'yicha hisob ishlarini olib borishga sabab bo'lgan. Xullas, bu fikr va qarashlarning shakllanishi hamda rivojlanib borishi turli yo'nalishdagi fanlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Iqtisodiy tahlil «Buxgalteriya hisobi» va «Statistika» fanlari negizida yuzaga kelgan.

XV-XVII asrlarda ishlab chiqarish jamiyatning barcha sohalarida keng ko'lamda rivojlana boshlagan. Bu esa o'z navbatida hisob ishlarini ham yuritishni taqozo etgan, ya'ni ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan moddiy va mehnat resurslari sarfini hamda uning natijalarini qayd qilish uchun hisob ishini olib borishga ehtiyoj tug'ilgan, natijada hisob-kitob ishlari yuritila boshlagan. Ishlab chiqarishning yanada rivojlanib kengayib va taraqqiy etib borishi mavjud imkoniyatlarni aniqlab, xo'jalik faoliyatiga jalb etishni talab qilgan. Ammo ushbu muammoni hal qilishda hisob ma'lumotlari yetarli bo'lmay qolgan. Bu esa obyektiv holatda tahlilning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

